


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70721201 – To‘qimachilik mahsulotlari texnologiyasi
(to‘qima)
magistratura mutaxassisligining malaka talablari



Toshkent 2023

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil «__» _____ dagi ____ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi.....	5
1.1	Qo'llanish sohasi	5
1.1.1	70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) magistratura mutaxassisligi malaka talablarining qo'llanilishi.....	5
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	5
1.2	70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	5
1.2.1	70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	5
1.2.2	70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	6
1.2.3	70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	6
1.2.4	70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy vazifalari.....	7
2	70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	8
2.1	Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	9
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.....	11
2.3.1.	<i>Kvalifikatsiya</i>	11

2.3.2.	70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	11
2.3.3	70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	12
	Bibliografik ma'lumotlar.....	13
	Kelishuv varag'i.....	15

1. 70721201 - *To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima)* magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70721201 - *To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining meyoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70721201 - *To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima)* magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **70721201 - *To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima)*** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv reja va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatni nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslari.

1.2. 70721201 - *To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi

1.2.1. 70721201 - *To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70721201 - *To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima)* magistratura mutaxassisligi – oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab

chiqarish birlashmalarda ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy xavfsizlik faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini rivojlantirishda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tashkilotlari va korxonalari;

- xom ashyoni to'quvchilikka tayyorlash jarayonlari;

- to'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda to'qima ishlab chiqarish texnologik jarayonlari;

- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari;

- ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;

- turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarining mehnat faoliyati;

- ta'limning tashkillashtirilgan ko'rinishlari, ta'lim usullari, pedagogik texnologiya, yangi informatsion texnologiya, ta'limning texnik vositalar;

- oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi tashkilotlari;

- ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot tashkilotlari.

1.2.3. 70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- *Ilmiy-tadqiqot faoliyati;*

- *Pedagogik faoliyat;*

- *Ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;*

- *Tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*

- *Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyati;*

1.2.4. 70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarining kasbiy vazifalari:

70721201 - *To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima)* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy natijalarni nashr etish;

- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmogida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

Pedagogik faoliyatda:

- oliy ta'lim, kayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning). masofaviy axborot texnologiya va o'quv- metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash; ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- yangi mahsulot turlari bo'yicha meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

- mahsulot sifatini boshqarishda texnik hujjatlar va yangi tajriba usullarini joriy qilishni tashkillashtirish va nazorat etish;

- loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish;

- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish.

Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyatida:

- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish;

- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish;

- mehnat munosabatlariga yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tadbiq qilinishini tashkil qilish.

2. 70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil taxlil qilish;

- milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalar bilan mutanosibli va farqini bilish;

- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olish;

- shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy meyorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

- o'z faoliyatida meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul kila bilishi;

- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og‘zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo‘lish;

- o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy mas‘uliyat shakllangan bo‘lish;

- kasbiy faoliyatda o‘zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo‘lish;

- axborotni to‘plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallash;

- o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilish;

- axborot, bilim, ma‘lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo‘lish, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lish;

- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga eta bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

- ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondoshish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e‘lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

- patent olish uchun ishchi meyoriy hujjatlar tayyorlay olish;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e‘lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash *malakalariga ega bo‘lishi lozim.*

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat mazmuni, pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, fikrlash madaniyati, o‘ziga xos xususiyatlari va turlari bilan tanishish va pedagogik texnologiyalardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish mahoratini muayyan tafakkur uslubiga, og‘zaki va yozma nutqini aniq bayon etish, ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish, o‘z faoliyatida meyoriy huquqiy hujjatlardan foydalana olishni;

- ilmiy tadqiqotning nazariy asoslari to'qimachilik korxonalarida ilmiy tadqiqot ishlarni o'tkazish, tajribalarni ilmiy rejalashtirish, tajribadan olingan natijalarni tahlil qilish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish, matematik-statistika usullardan to'liq foydalanish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishning sharoitlarini aniqlash va ularni ishlab chiqarish korxonalarida tadbiq etishni;

- to'qima hosil qilish jarayonlari nazariy asoslari, fan va texnika yangiliklarini ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish, to'quvchilikka keltiriladigan o'ramalar omillari va turlarini, iplarni to'quvchilikka tayyorlash texnologik jarayonlar nazariyasini o'rgatish, oxorlash jarayoni texnologik omillarini hisoblash va tanlash, tanda iplarini to'quv dastgohi anjomlaridan o'tkazish yoki ulash jarayonlarini, elektron homuzaga hosil qilish mexanizmlarini; homuzaga arqoq tashlash jarayoni usullarini, arqoq ipini to'qima chetiga jipslashtirishni, to'qimani tortish va o'rash jarayoni nazariyasini, dastgohni har xil rangli arqoq iplari bilan ta'minlashni, dastgohni nazorat qiluvchi mexanizmlarini tahlilini, zamonaviy to'quv dastgohlarining yuritmasi va tormozi hamda to'qima sifatini tekshirish va tozalash uskunalarini;

- to'qima loyihalashning zamonaviy usullari, o'zgaruvchan bozor iqtisodiy sharoitida tez moslashuvchan ishlab chiqarishni tashkil etishni, zamonaviy to'qima loyihalash usullarini, loyihalashning usulini tanlay olish va tahlil qilishni, yangi to'qima assortimentlarini yaratish va loyihalashni;

- to'qima tuzilishi nazariyasi to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarilayotgan to'qimalarning bugungi va istiqboldagi xaridorgir turlarini yaratishning nazariy asoslari, nazariy va amaliy bilimlarini magistrlik dissertatsiyasini bajarish bilan real sharoitga qo'llashni;

- magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga *ega bo'lishi kerak.*

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.

- Magistratura mutaxassisligi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, ilmiy amaliyotlarni (stajirovka) o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

- Majburiy fanlar mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi hamda kasbiy kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar.

- Tanlov fanlari ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovasion usullar va sohaning hududiy

omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir tanlov fanlari jamlamasiga ikkitadan kam bo'lmagan o'rnini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O'quv rejadagi tanlov fanlari majmuasining umumiy soni 3 tagacha bo'lishi mumkin.

- Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: texnolog muhandis, tadqiqotchi pedagog

2.3.2. 70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1440	48
Tanlov fanlar	360	12
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1440	48	
1.01	ITM1106	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	MFO'M1106	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	180	6	1
1.03	PTPM1106	Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat	180	6	1
1.04	ITNA1206	Ilmiy tadqiqotning nazariy asoslari	180	6	2
1.05	THQJNA11212	To'qima hosil qilish jarayonlari nazariy asoslari	360	12	1,2
1.06	TLZU2306	To'qima loyihalashning zamonaviy usullari	180	6	3
1.07	TTN1206	To'qima tuzilishi nazariyasi	180	6	2
2.00		Tanlov fanlari	360	12	
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	
3.01	ITIMDT1438	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1140	38	4
3.02	IPI1414	Ilmiy-pedagogik ish	420	14	4
3.03	IA2408	Ilmiy amaliyot (tajriba o'rtirish)	240	8	4
		HAMMASI:	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va o'quv dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, to'qima ishlab chiqarish texnologiyasi, qayta o'rash, tandalash, ohorlash, to'quv dastgohi, mokki, to'qimalar, tig', arqoq, tanda, gula, shoda, xomuza, jakkard, bir va ko'p qatlamli to'qimalar hosil qilish jarayoni, mayda naqshli to'qimalar, abri to'qimalar, yirik naqshli to'qimalar, aralash to'qimalar, texnologik zichlik, geometrik zichlik, ipning qisqarishi, ip yo'g'onligi, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, nazariY.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent ta'limchilik va yengil sanoat instituti

Rektor D.Vaxabov

2023 yil « 07 »



M.O'.

“O'zto'qimachilik sanoat” uyushma
raisi maslahatchisi D.M.Muxamedova

2023 yil « 15 » 07



M.O'.


KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi huz-
uridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tatbiq etish markazi

Direktor SH.Yakubov

2023 yil « 7 » 08

M.O'.



Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti

Rektor S.M.Turabdjano

2023 yil « 14 » 07

M.O'.



«O'zbek Turk Test markazi» bosh
mutaxassisi
A.A.Jamilov

2023 yil « 14 » 07

M.O'.



“AGRO TEKS ALLIANCE” MCHJ
direktori

D.B.Imamdjanov

2023 yil « 14 » 07

M.O'.



Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi
bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh
oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida
KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ 15 ” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti rektori D.Vaxabov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.M.Turabdjanovlar birgalikda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yunalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv xaqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiklash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iktisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, Qarorlari va 2023 yil 15-iyundagi “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi F-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan. Mutaxassislik bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa xujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti rektori



D.Vaxabov

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, professor



S.M.Turabdjanov

**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida ishlab chiqilgan 70721201 -
To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha
magistrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga
qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

TAQRIZ

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli hamda O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi "Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'i, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Magistratura mutaxassisligi o'quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, magistrlik majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. magistrlikning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining

nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standaplash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi.

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti rektori, professor**



S.M.Turabdjano

**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida ishlab chiqilgan
70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi
bo'yicha magistrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar
mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

TA Q R I Z

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida 70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-53-son Farmoni qoidalarini va tamoyillariga amal qilingan.

70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan. ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, magistrning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan obyektlari misolida fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 70721201 - To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi (to'qima) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalarini talablarini qoniqtiradi.

"AGRO TEKS ALLIANCE" MCHJ direktori  **D.B.Imamdjanov**

